



1913-yil aprel oyidan chiqa boshlagan

Fidoyilik —
Vatanga xizmat demak!

2025-yil 15-iyul, seshanba,
80 (24.106)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yalqovga
baxt
begona

Takrorlanuvchi lavozimlar optimallashtirildi

Kecha, 14-iyulda Prezident “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonni imzoladi.

Farmonga muvofiq, Prezident Administratsiyasining yangi tuzilmasi tasdiqlandi. Natijada Administratsiya va uning tarkibidagi tashkilotlarda 284 ta shtat qisqartirildi, takrorlanuvchi lavozimlar optimallashtirildi.

Endilikda Prezident Administratsiyasi faoliyatida 5 ta ustuvor yo‘nalish belgilandi. Bular — ta‘lim, biznes, sud-huquq tizimi, tibbiyot va suv resurslari masalalaridir. Ushbu yo‘nalishlarda islohotlarni samarali amalga oshirish maqsadida Prezident Administratsiyasi rahbariga 5 nafar o‘rinbosar lavozimi joriy etildi.

Bundan tashqari, Prezidentga strategik rivojlanish, tashqi siyosat bo‘yicha yangi maslahatchi lavozimlari kiritilib, moliyaviy texnologiyalar, raqamlashtirish va sun‘iy intellekt, kreativ iqtisodiyot va turizmni rivojlantirish, jamoat xavfsizligi va qonun ustuvorligi, tadbirlarni tashkillashtirish, yig‘ilish va hududlarga tashriflar uchun tahliliy kontent tayyorlash bo‘yicha, shuningdek, kommunikatsiya departamentlari tashkil etildi.

«Farg‘ona haqiqati» - davrning gazetasi

«Farg‘ona haqiqati» («Sadoi Farg‘ona») bizning «Zarafshon» gazetamiz bilan qariyb tengdosh. O‘tgan asrning 10-yillarida jadidlar harakati bilan tashkil etilgan bu nashrlar doim bir-biriga hamkor bo‘lgan. Xususan, Farg‘ona viloyatining nashri o‘z sahifalarida xalqimiz tarixini yozish barobarida vodiylik minglab ijodkorlar uchun maktab vazifasini o‘tagan.



25 minginchi son. Bu 25 ming bora chekilgan mashaqqat, qiyналgan asablar, junbushga kelgan qalb qo‘ri va nihoyat, o‘quvchi qo‘lida tillaga barobar ne‘matga aylangan sahifalardir.

Bu mehnatning nechog‘lik mashaqqatli bo‘lganini bilganimiz uchun farg‘onalik hamkasblarimizni mazkur sana bilan tabriklaymiz!

Milliy matbuotimiz an‘analarini davom ettirib, atrofida ijtimoiy, ijodiy muhit yaratgan olgan gazeta jamoasiga havas qilamiz. Hamkorligimiz, sahifalar almashinuvi, ijodiy uchrashuvlar bundan keyin ham davom etsin!

Viloyat «Zarafshon» va «Самаркандский вестник» gazetolari tahririyati.

Samarqand tumanidagi O‘zbekkent mahallasida 1100 o‘rinli “Registon lyceum” xususiy maktabi hamda 200 o‘rinli “Registon” xususiy maktabgacha ta‘lim tashkilotining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.

Marosimda viloyat hokimining o‘rinbosari Husan To‘xtayev, tuman hokimi Sirojiddin Usmonov, “Zarafshon” va “Samarqandskiy vestnik” gazetalarini tahririyati bosh muharriri Farmon Toshhev so‘zga chiqib, milliy va zamonaviy ta‘lim-tarbiya mohiyati xususida so‘z yuritdi.

– Loyihamiz tashkil topganiga o‘n bir yil bo‘ldi, – deydi “Registon” xususiy maktabining boshlang‘ich ta‘lim bo‘limi direktori Dilafruz To‘xsanova. – Bu muddat ichida samarali ishlar amalga oshirildi. Maktabimiz xalqaro ta‘lim standartlariga moslashtirilgan bo‘lib, IT, matematika, ingliz, rus va arab tillari chuqurlashtirib o‘rgatiladi. Bizda bog‘chadan to‘litseygacha ta‘lim-tarbiya jarayonlari tashkil etilgan.

– Men Qorasuv mahallasida yashayman, – deydi Shuhrat Boboyorov. – Qizimni “Registon” xususiy bog‘chasiga berdim. Bog‘chada bolaga kreativ fikrlash, mehnat malakasi o‘rgatilar ekan. Tashkilotdagi zamonaviy shart-sharoitlar hamma ota-onalarga birdek manzur bo‘ladi, deb o‘ylayman. Maktabning ochilish marosimida bolaning o‘ssishi va rivojida muhim

Yangi xususiy maktab va bog‘cha faoliyatini boshladi



bo‘lgan aqliy, ruhiy, jismoniy jihatlarni birdek uyg‘unlikda qamrab oladigan ta‘lim va tarbiyani zanjirli bog‘laydigan dasturning taqdimoti bo‘lib o‘tdi. Bu dastur ikki yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun maxsus tuzib

chiqilgan.

Maktab eng zamonaviy o‘quv jihozlari hamda sport uskunalarini bilan ta‘minlangan. To‘rt mahal ovqatlanish yo‘lga qo‘yilgan.

Xurshida ERNAZAROVA.

INDALLOSINI AYTGANDA...



Ahmadjon MELIBOYEV, O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan jurnalist:

– Dunyoga qaraylik – rivojlangan mamlakatlarda ota-onalar bolalarini gadjetlardan bosma nashrlarga qaytaryapti. Ruhshunoslarning tavsiyasi bu. Ijtimoiy tarmoqlarning xabar tarqatish tezligini hech kim inkor etmaydi. Ammo birgina xabardorlik bilan ish bitmaydi.

Муносабат



қоидабузарликларини аниқловчи 118 та фото ва видео қайд қилиш дастурий техника воситалари комплекси ўрнатилиб, ишга туширилган.

Шунингдек, йўл инфратузилмасини комплекс такомиллаштириш бўйича 1968 та янги ҳамда мактаблар олдида тезликни чекловчи 69 та йўл белгилари, йўналишларда дастлабки, аҳоли гавжум ҳудудларда пиёдалар ўтиш жойларига пиёдалар бошқарадиган 11 та светофорлар ўрnatilib, 23 та янги светофор қурилди, 28 та светофор реконструкция қилинган. Мактаблар олдида 40 та “қаварик” пиёдалар ўтиш этилиги ташкил этилган.

Лекин бу ишлар етарли бўлма-япти-да. Агар акси бўлганида, ўтган олти ойда 5 ва ундан ортиқ ҳуқуқбузарлик содир этган ҳайдовчилар вилоят ҳудудида 5803 тани ташкил этмаган бўларди. Шунингдек, ярим йилда содир этилган йўл-транспорт ҳодисаларининг 94 тасига ҳайдовчиларнинг белгиланган тезликка риоя этмаслиги сабаб бўлган.

Умуман, видеоселектор йиғилишида ўлим билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисаларининг қўплиги ҳамда сурункали қоидабузарлар сонни бўйича Самарқанд “етакчи”лар қаторида эканлиги қайд этилди.

Бу ҳайдовчилар давлатимиз раҳбари айтганидек, “жаримани тўлаб қўйдим, билганимдек юраман” қабилида иш тутишган. Энди сурункали қоидабузарларга қўриладиган чоралар қатъий бўлади. “Ашаддий ҳуқуқбузарларга қонун кучини кўрсатиш мақсадида янги тизим қилмиз”, – деди президент.

Шавкат ШАРИПОВ, Олий Мажлис Сенати аъзosi.

E'tirof



“Braille Phone”

imkoniyati cheklanganlar uchun imkoniyat

Maktabni bitirar chog‘larim o‘zining qiziqishim va akamning maslahati bilan IT yo‘nalishi bo‘yicha o‘qishga hujjat topshirdim.

O‘quvchilik davrimda matematika va ingliz tili fanlarini chuqur o‘rgananim sababli oliy ta‘lim muassasasiga o‘qishga kirish qiyin bo‘lmadi. Talabalikda shu yo‘nalish bo‘yicha ko‘plab tanlovlarda ishtirok etib, o‘oliblikni qo‘lga kiritganman. Hozirda 10 dan ortiq startap loyihalarini muallifman. Ijtimoiy qiyinchiliklarga kreativ yondashib, jamiyatdagi muammolarga yechim bo‘ladigan loyihalar yaratish oliy maqsadim. Yaqinda ko‘zi ojizlar uchun mo‘ljallangan “Braille Phone” qurilmasini ixtiro qildim. Bu loyiham 6 ta tugma orqali brayl alifbosidagi barcha harflar va raqamlarni xosil qiladi. Uning yordamida xabar yozish, qo‘ng‘iroq qilish va boshqa funksiyalarni bajarish imkoniyati mavjud.

30-iyun men uchun unutilmas kun bo‘ldi. Yoshlar kuni munosabati bilan “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlandim.

Davlatimiz rahbaridan medalni qabul qilib olish jarayonida ko‘z oldimdan barcha qiyinchiliklar, mehnatlar birin-ke-tin o‘ta boshladi. Bu, albatta, ko‘pchilikning, shu jumladan, ustozlarimning, ota-onamning, oila azolarimning mehnati, qo‘llab-quvvatlashi samarasidir.

Mukofotlash jarayonida davlatimiz rahbari barcha taqdirlanganlar bilan gaplashdi. Ularga o‘zining tilaklarini va rahmatlarini aytdi. Menga ham barcha yaratilgan sharoitlardan to‘liq foydalanib, izlanishdan, o‘qishdan hech qachon to‘xtamasligim kerakligini ta’kidlab, ota-onamga rahmatlarini yetkazib qo‘yishimni aytdi.

Kichik-kichik loyihalarim e’tirof etilib, mukofotlanishim menga katta ruh, ishonch berdi. Toshkentdan qaytishim bilanoq jamoamni yig‘ib, yangi startap loyihalar ustida ishlash uchun harakatni boshlab yubordim.

Mahbuba SALIMOVA, SamDU magistranti.



Президент Шавкат Мирзиёев раислигида йўл ҳаракати хавфсизлигини таъминлаш, инфратузилмасини яхшилаш ва тирбандликларни камайтириш чора-тадбирлари юзасидан йиғилиш ўтказилди.

Давлат раҳбари «Афсуски, ҳар тўртинчи аварияда 1 киши ёки кунига ўртача 6 киши вафот этаётгани барчани қаттиқ ташвишга солиши керак», – деди.

Вилоят ИИБ йўл ҳаракати хавфсизлиги бошқармаси маълумотларига кўра, жорий йилнинг олти ойида шахар ва туманларимизда 428 йўл-транспорт ҳодисаси содир этилган. Яъни, ўтган йилнинг шу даврига нисбатан 30 та (398/428) кўп авария юз берган.

Йўл-транспорт ҳодисаларининг 50 фоизи ёки 214 тасида пиёдалар уриб юборилган.

Йўлнинг тоифаси ҳаракат жадаллигига мос эмаслиги ва ёритиш мосламалари тўғрисида ишламаслиги, пиёдалар учун тротуар йўқлиги йўл-транспорт ҳодисаларининг келиб чиқишига асосий сабаблардан бири бўлган.

Масалан, кўнгилсизликларнинг 65 таси тўсиқлар ўрnatилмаганлиги сабабли ҳайдовчиларнинг қарама-қарши йўналишга чиқиши оқибатида юз берган.

Шу маънода «Хавфсиз йўл ва хавфсиз пиёда» республика жамағармаси маблағлари биринчи галда авария ўчоқлари бўлган хавфли участкаларни

Ашаддий ҳуқуқбузарларга

қонун кучи кўрсатиб қўйилади

тартибга солишга йўналтирилиши белгилангани айна мудао бўлди. Яна бир жиҳати, энди радарлар орқали бюджетга тушадиган маблағнинг 25 фоизи ҳам шу жамағармага ўтказилади.

Жамағарма маблағлари биринчи галда авария ўчоқлари бўлган хавфли участкаларни тартибга солиш – йўлни ажратувчи тўсиқлар, йўл белгилари, ёриткичлар ўрнатиш, пиёда йўлаклари ташкил қилиш, чорраҳаларни рақамлаштиришга йўналтирилади.

Давлатимиз раҳбари қаерда ҳоким ва ЙҚХХ биргаликда йўл инфратузилмаси билан жиддий шўғулланса, ўша ерда ўзгариш кузатилаётгани қайд этилди. Шу маънода вилоятимиздаги айрим ҳудудларда мутасаддилар ишни тўғри ташкил қилолмаётгани кўриниб қолди.

Негаки Тойлоқ, Иштихон, Паст Дарғом, Пахтачи, Пайарик, Нарпай, Жомбой ҳамда Окдарё туманларида умумий йўл-транспорт ҳодисалар сонини ўтган йилнинг олти ойига нисбатан ошган.

Ўлим билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари ҳам айна шу туманларда кўпайган. Мисол учун, Тойлоқ туманида ўтган йили бундай ҳолат 2 та бўлган. Жорий йилнинг олти ойида эса йўл-транспорт ҳодисаларидан 6 киши вафот этган. Пайарик туманида мос

равишда 3/6, Пахтачи туманида 4/8, Паст Дарғом туманида 4/7, Ургут туманида 8/12, Булунғур туманида 3/4, Жомбой туманида 7/9 ўлим билан боғлиқ йўл-транспорт ҳодисалари қайд этилган.

Аҳамиятли жиҳати, давлат раҳбари бундай қайғули ҳолатларни камайтириш учун ҳам аниқ ечимларни қайд этди. Жумладан, ички йўлларни тартибга олиш учун вилоят ва туман ҳокимлари масъул бўлади. 1 октябрга қадар бошқа республика ва халқаро йўллар қатори Тошкент – Самарқанд – Термиз ҳамда Самарқанд – Бухоро йўналишидаги халқаро йўлларнинг хавфсизлик талабларига мослиги ўрnatилди. Йил якунигача қанча ер ости ва ер усти қайрилиш ҳамда пиёдалар ўтиш жойлари, замонавий нур қайтарувчи йўл белгилари ва чиқиқлари кераклиги бўйича техник-иқтисодий асос ишлаб чиқиқиб, келгуси йилда халқаро молия ташкилотларидан маблағ жалб қилиш прогнозига бу мақсадлар учун 200 миллион доллар киритилади.

Албатта, йўл-транспорт ҳодисаларининг олдини олиш мақсадида муайян ишлар қилинган. Мисол учун, 61 та автомобиль йўлларининг хавфли участкаларига фоторадар қурилмалари, 69 та чорраҳада интеллектуал транспорт тизимини жорий этиш учун рақамли светофор қурилмалари ва йўл ҳаракати



“Ayollar daftari” doimiy yordam mashinasi emas

Sabohat ish izlashga ko‘p vaqt sarflamadi: mahalla xotin-qizlar faoli uning muhtojligini bilgach, kasb-koriga, imkoniyatiga qarab, bir nechta ish taklif qildi. U bog‘chani ma‘qul ko‘rdi va shu yerda ish boshladi. To‘g‘ri, maoshi yuqori emas, lekin nailoj, diplomi bo‘lmasa, boshqa hunarni ham vaqtida o‘rganmagan.

“Ayollar daftari”dagi xotin-qizlar haqida gap ketganda, ularga ko‘rsatilayotgan yordam, ro‘zg‘orini tebratish uchun ajratilayotgan ko‘mak qishloq hududlarida parrandachilik, chorva, tikuvchilik yo‘nalishlarida bo‘lishi haqida ko‘p yozganmiz. Qishloq ayollarini ish o‘rni bilan ta‘minlash oson kechmaydi, shuning uchun ularga asosan o‘z-o‘zini uddalash, ro‘zg‘orini tebratish uchun sharoitlar yaratishga harakat qilinadi. Xo‘p, shaharda bu masalada qanday yo‘l tutiladi?

Mingtut mahallasi Samarqand shahridagi markaziy mahallalardan biri. Bu yerda 850 nafar xotin-qiz istiqomat qiladi, ularning 41 nafari bu yil “Ayollar daftari”ga kiritilgan.

Mahallamiz shaharning markazida bo‘lgani uchun bu yerda aholi uchun ish o‘rinlari topib berishda ko‘p qiynalmaymiz, - deydi Mingtut mahalla fuqarolar yig‘ini xotin-qizlar faoli Nazokat Saparova. - Hududimizda 20 dan ziyod korxona va tashkilotlar mavjud, ko‘pincha ularning o‘zlari bizga u yoki bu ish qo‘lidan keladigan xizmatni topib berishlarini so‘rab murojaat qilishadi. Shunday paytda birinchi navbatda xatlovdan o‘tkazilganda ishga muhtoj sifatida ro‘yxatga kiritilgan xotin-qizlarni bu haqda ogohlantiraman. Shu yilning o‘zida besh nafar xotin-qiz shu atrofda turli korxonalarga ishga joylashishga muvaffaq bo‘lishdi. Qolaversa, jami 50 nafarga yaqin ayollar atrofda korxonalarda mehnat qilishadi. Daftarga kiritilgan 4 nafar xotin-qizni “Tadbirkorlik markazi”da bepul kasb-hunarga o‘rgatishga yo‘naltirdik. Boquvchisi yo‘q, nogiron farzandi bor 22 nafar oilalarga bir martalik yordam pullari ajratildi. Uy-joy ta‘miriga muhtoj ayollardan birining xonadonida ta‘mirlash ishlari olib borilmoqda. Shuningdek, mazkur daftarga kiritilgan 41 nafar xotin-qizning barchasi Samarqand shahridagi 11-son oilaviy poliklinika mutaxassislari tomonidan tibbiy ko‘rikdan o‘tkazildi.

Shu yil yanvar oyidan boshlangan xatlov doirasida bu yil viloyat miqyosida 104 ming 509 nafar xotin-qiz “Ayollar daftari”ga kiritildi.

O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi xodimlari “Ayollar daftari”ning oltinchi bosqichiga kiritilgan xotin-qizlarga ko‘rsatilgan amaliy yordamlarni monitoring qilish hamda jamoatchilik nazoratini olib borish maqsadida viloyat kengashi xodimlari shahar va tumanlarga biriktirildi.

- Ayni paytgacha “Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlardan 60 ming 466 nafari yoki 57,9 foiziga amaliy yordam ko‘rsatilgan, - deydi O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasining viloyat kengashi raisi o‘rinbosari Akbar Abdusaidov. - Xususan, 44844 nafar ijtimoiy

himoyaga muhtoj, ishsiz xotin-qizlardan 30378 nafari yoki 67,7 foizining bandligi ta‘minlangan.

Tadbirkorlik qilish istagida bo‘lgan 3292 nafar ehtiyojmand xotin-qizlardan 2410 nafariga kredit ajratilgan. Boquvchisi bo‘lmagan 23991 nafar ehtiyojmand xotin-qizlardan 11327 nafariga yordam ko‘rsatildi. 267 nafar uy-joyi ta‘mirlanishga muhtoj ehtiyojmand xotin-qizlardan 51 nafarining uy-joyi ta‘mirlab berilgan.

Ijtimoiy yordamga muhtoj I va II guruh nogironligi bo‘lgan, shuningdek, tezkor tibbiy muolajaga muhtoj 21825 nafar xotin-qizlardan 9074 nafariga zarur yordam ko‘rsatilgan. 76 nafar uy-joy bilan ta‘minlanishga ehtiyojmand xotin-qizlardan 13 nafariga uy-joy ajratildi.

Ijarada yashovchi 265 nafar ehtiyojmand xotin-qizlarning 55 nafariga ijara kompensatsiyasi to‘lab berilgan. Qaramog‘ida nogironligi bo‘lgan farzandlari mavjud 10216 nafar ehtiyojmand ayollardan 7189 nafariga yordam ko‘rsatilgan. 155 nafar xotin-qizlarning 64 nafariga tomorqadan unumli foydalanish uchun yordamlar ko‘rsatildi.

Kengashimiz “Ayollar daftari”ning oltinchi bosqichiga kiritilgan xotin-qizlarga ko‘rsatilgan amaliy yordamlarni monitoring qilish hamda jamoatchilik nazoratini olib borish bilan shug‘ullanadi. Viloyat kengashi xodimlaridan iborat guruhlar shahar va tumanlarda mazkur masalada olib borilayotgan ishlar bilan chuqur tanishib boradi. Yil oxiriga kelib, mazkur yordamlar o‘z egasiga to‘g‘ri yetib bordimi, yo‘qmi, bu bo‘yicha alohida monitoring olib boriladi.

Mahalla faollari bilan suhbatlashar ekanmiz, “Ayollar daftari” keyingi yillarda xotin-qizlarga yordam ko‘rsatishning asosiy bir dasturi sifatida ko‘rilayotganini bildirishdi. Ammo bu daftarga kirib, doimiy ravishda moddiy yordam olish mumkin, degan fikrli xotin-qizlar soni ham ko‘paymoqda. Deylik, mazkur daftarning bir toifasi, ishsizlik bo‘yicha ro‘yxatga tushgan ayolga o‘z hududidan ish taklif etiladi yoki xohishiga ko‘ra ma‘lum kasb-hunarga o‘qitiladi. Ammo ro‘yxatdagi ayol bundan norozi. Sababi, unga moddiy yordam ajratilishini istaydi. Vaholanki, u moddiy yordam oladigan toifada emas. Qolaversa, tadbirkorlik boshlamoqchi bo‘lgan ehtiyojmand xotin-qizlarga imtiyozli kredit ajratiladi. Afsuski, aksariyat xotin-qizlar buni sub-sidiya deb o‘ylaydi.

Xullas, “Ayollar daftari”dan maqsad faqat doimiy moddiy yordam ajratish emas, ayolni ishl qilish, qo‘lidagi hunari va intilishiga oz bo‘lsa-da, turk va moddiy rag‘bat berishdan iborat.

Gulruh MO‘MINOVA.

O‘quv yili davomida o‘quvchilarining sho‘xliklariga sabr qilib, ularga fan sirlarini o‘rgatgan murabbiy va o‘qituvchilar ta‘tilni qanday o‘tkazyapti? Qanchasi sihatgohlarda dam olyapti? O‘qituvchi yangi o‘quv yiliga yaxshi tayyorgarlik ko‘ra oladimi? Keling, shu haqda mulohaza qilamiz.

- Yaqinda hamkasblar bilan uch kunga Zomiga dam olishga bormoqchimiz, - deydi Nurobod tumanidagi 6-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining birinchi toifali ona tili fani o‘qituvchisi Maifuza Haydarova. - Hamkasblarim bilan qisqa muddatli dam olishga borib turaman. Ammo uyim-joyim, bolalarim deb shu paytgacha yo‘llanma asosida biron sihatgohga bormabman. Nasib bo‘lsa, shu yilgi yozgi ta‘tilda tumanimizdagi Ibn Sino sihatgohida dam olishni rejalashtiryapman.

- Maktabda ish boshlaganimga 26 yil bo‘ldi, - deydi Bulung‘ur tumanidagi 48-umumiy o‘rta ta‘lim maktabining birinchi toifali ona tili va adabiyot fani o‘qituvchisi Risolat Imomqulova. - Shu paytgacha bolalar tarbiyasi, ro‘zg‘or ishlari orib, uzoq muddatga sihatgohlarga dam olishga bormadim. Ta‘tilda va bayram kunlari oilam bilan qisqa muddatli dam olish joylariga borib turaman. Qishloq joylarda yozda mavsumga oid turli yumushlar bo‘ladi. Tomorqa ishlari ham toliqqan asablarni tinchlantiradi.

Darhaqiqat, ko‘pchilik o‘qituvchilar yozgi ta‘tilni oila davrasida, ro‘zg‘or yumushlariga ko‘milib o‘tkazadi. Yil davo-

O‘qituvchilar sihatgohlarda dam olyaptimi?

Dolzarb mavzu




mida charchagan asablariga yengillik berish uchun biron sihatgohga borishni rejalashtiradigan o‘qituvchilar kamchilikni tashkil qiladi. Fikrimizning isbotini quyidagi raqamlardan ham bilishi mumkin.

2025-yilning 1-iyun holatiga 359 nafar pedagog kasaba uyushma budjeti mablag‘lari hisobidan, 118 nafari ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan sihatgohlarga yo‘llanma olgan. Vaholanki, bugun viloyatda 61 mingdan ortiq pedagog umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida mehnat qiladi.

- Ta‘lim tizimi xodimlari asosan yoz oylarida sihatgohlarga yo‘llanma olish uchun murojaat qiladi, - deydi O‘zbekiston Ta‘lim va fan xodimlari kasaba uyushmasi Respublika kengashining viloyat bo‘yicha mas‘ul tashkilotchisi Iftixor Rahimov. - Bugun yigirma bitta sog‘lomlashtirish sihatgohlariga yo‘llanma berish imkoniga egamiz. Pedagoglar kasalligiga qarab, o‘zlariga mos sihatgohni tanlaydi. Faqat tartib-qoidaga ko‘ra talabgorlar ikki oy oldin murojaat qilishlari kerak. Shuningdek, bizda yo‘llanmalar har bir xodimga ikki yilda bir marotaba beriladi.

Bugun sihatgohlarga beriladigan yo‘llanmaning o‘rtacha narxi 4 million 600 ming so‘m bo‘lib, uning 45 foizi xodim tomonidan, 55 foizi kasaba uyushmasi tomonidan to‘lanadi. 2025-yilda kasaba uyushma budjeti mablag‘laridan 1200 nafar, ijtimoiy sug‘urta mablag‘lari hisobidan 960 nafar pedagogning sog‘lomlashtirishi rejalashtirilgan. Bu prognoz



talabga ko‘ra, bundan ham ortiq bo‘lishi mumkin.

Demak, fakt va raqamlarga e‘tibor beradigan bo‘lsak, viloyatda 2023-yilda 2472 nafar, 2024-yilda 2316 nafar pedagog xodimlar ijtimoiy sug‘urta va kasaba uyushmasi budjeti mablag‘lari hisobidan sihatgohlarda davolangan. Joriy yilda ham shuncha atrofida pedagoglar sog‘lashtirish sihatgohlarida dam oladi. Ammo bu ko‘rsatkich viloyatdagi umumta‘lim maktablari o‘qituvchilarining taxminan 3,5 foizini tashkil qiladi. Ko‘rinib turibdiki, bu juda past ko‘rsatkich.

Afsuski, respublikamizda yagona bo‘lgan Oqdaryo tumanidagi “Ustoz” sihatgohi ham bugun viloyat maktabgacha va maktab ta‘limi boshqarmasi tasarrufida emas. Bir paytlar ushbu sihatgoh qanchadan qancha pedagoglarning salomatligini tiklashga yordam bergan bo‘lsa, bugungi kunda

xususiy lashtirib yuborilgan.

To‘g‘ri, ayrim o‘qituvchilarga sihatgohlarning 45 foizli yo‘llanmasi ham qimmat. Buni inkor etib bo‘lmaydi. Shuning uchun yozgi ta‘tilda o‘qituvchilarni sog‘lomlashtirish sihatgohlariga yuborish, ularning har tomonlama yaxshi dam olishini tashkil qilish masalasi hukumatimiz tomonidan jiddiy ko‘rilishi lozim. Kerak bo‘lsa, pedagoglar uchun alohida sihatgohlar ishga tushirilishi, yil davomida ularning ishlashini ta‘minlash zarur. Yutuqlarga erishgan ayrim o‘qituvchilarning bepul dam olishini tashkil etish ham maqsadga muvofiq.

Ta‘lim sifatining oshishiga jiddiy e‘tibor berilayotgan bir paytda ta‘lim sohasi xodimlarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, salomatligini tiklash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratish zarur. Siz qanday fikrdasiz?

Xurshida ERNAZAROVA.



Statistika boshqarmasiga ko‘ra, 2025-yilning yanvar-may oylarida viloyatda ulgurji savdo tovar aylanmasi 10 616,9 milliard so‘mni tashkil etib, 2024-yilning mos davriga nisbatan 8,4 foizga o‘sdii. Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi umumiy hajmi 5 213,3 milliard so‘mni tashkil qilib, 2024-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur‘ati 127,1 foizga yetdi.

Viloyatda jami ulgurji savdo hajmidagi ulush 49,1 foizni tashkil etmoqda.

Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish bo‘yicha davlat buyurtmasini shakllantirish va davlat granti ajratish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida bugundan boshlab barcha hududlarda abituriyentlar uchun test sinovlari boshlandi.

Test sinovlari Prezidentimizning 2024-yil 24-maydagi “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish va davlat buyurtmasini joylashtirish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmoniga ko‘ra “avval test, so‘ng tanlov” tamoyiliga muvofiq ikki bosqichda amalga oshiriladi.

Bunda abituriyentlar o‘z tanloviga ko‘ra test sinovi natijasida to‘plagan balidan kelib chiqib, dastlab oliy ta‘limning bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga, so‘ng professional ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirish uchun tanlovda ishtirok etadi.

Samarqand viloyatida 72305 nafar abituriyent test sinovlarida qatnashish uchun ro‘y-

Avval test, so‘ng tanlov

Abituriyentlar uchun test sinovlari boshlandi



xatdan o‘tgan bo‘lsa, ularning 72232 nafari imtihon jarayonlarida ishtirok etadi. Qolgan 69 nafari umumiy fanlardan maksimal ball to‘plagan sababli keyingi navbatda qatnashadi.

Test jarayonlari ikki navbatda bo‘lib o‘tadi. Birinchi navbat soat 08:00 da, ikkinchi navbat 15:00 da boshladi.

Test sinovlari 6 ta binoda, ya‘ni Bilim

va malakalarni baholash agentligi viloyat bo‘limi binosi, SamDU akademik litseyi sport zali, sportning o‘yin turlari va yengil atletikaga ixtisoslashtirilgan bolalar va o‘smirlar sport majmuasining 3 ta sport zalari hamda Samarqand davlat pedagogika instituti sport zallarida bo‘lib o‘tadi.

Mohira QAHHOROVA.

Bugun oliy ta‘lim muassasalariga kirish imtihonlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan hamkorlikda amalga oshirilmoqda. Test topshiriqlari bilan ishlovchi mas‘ul xodimlar jarayonlar o‘tkazish mobaynida maxsus yopiq rejimga o‘tkaziladi va ular tashqi muhitdan uziladi.

Bilim va malakalarni baholash agentligining o‘z mablag‘lari hisobiga respublikamizning barcha hududlarida test sinovlaridagi shaffoflik va inson omilini kamaytirishga xizmat qiluvchi katta sig‘imli binolar barpo etildi.

Agetlikning “Korrupsiyaga qarshi kurashish” bo‘yicha dasturi ishlab chiqilgan bo‘lib, inson omilini kamaytirish maqsadida test sinovlarini sun‘iy intellektidan keng foydalangan holda onlayn rejimda tashkil etishni yo‘lga qo‘yish, test materiallarining xavfsizligi choralarini kuchaytirish, test sinovi nazoratchilari bankini shakllantirish, saralash ishlarining shaffofligini oshirish, xodim-

“O‘qishga kiritib qo‘yaman”, deganlarga ishonmang!



larda korrupsiyaga qarshi immunitetni shakllantirish va boshqa tegishli bandlar bo‘yicha ishlar amalga oshirildi.

Agetlikning viloyat bo‘limi tomonidan Adliya boshqarmasi va boshqa huquq-tartibot organlari bilan hamkorlikda 22 ta ta‘lim muassasasida “Korrupsiya rivojlanishimizga to‘siq”, “Korrupsiyasiz ta‘lim”, “Korrupsiya bor joyda qaraqlik bo‘lmaydi”, “Korrupsiyaga qarshi birgalikda kurashamiz” mavzularida seminar, ochiq muloqot va davra suhbatlari tashkil etildi.

O‘tkazilgan tadbirlarda ishtirok etgan ta‘lim muassasalar rahbarlari, o‘qituvchilar va o‘quvchilarga korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olish, qonunchilik, xizmat intizomi, odob-axloq qoidalar va ichki tartib qoidalariga rioya etilishini ta‘minlashga qaratilgan keng

Agentlik ogohlantiradi



qamrovli tushuntirishlar berilib, firibgarlar tuzog‘iga tushib qolmaslik, “o‘qishga kiritib qo‘yaman”, degan va‘dalarga ishonmaslik kabi ma‘lumotlar berib borildi.

Shuni ta‘kidlash kerakki, Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan korrupsiyaga oid murojaatlarni qabul qilish uchun maxsus telegram bot va elektron pochta ishga tushirilgan. Agar abituriyentlar o‘qishga kirishda korrupsiya omillarini keltirib chiqaruvchi vaziyatlar yoki holatlarga duch kelsa, quyidagi aloqa kanallari orqali Bilim va malakalarni baholash agentligiga murojaat qilishlari mumkin.

Ishonch telefoni: (95) 199-19-14, Rasmiy sayt: <https://dtm.uz/page/reception>, Elektron pochta: antikor@dtm.uz, Telegram-bot: @dtm_antikor_bot

Samarqand SUYUNOV, Bilim va malakalarni baholash agetligi viloyat bo‘limi mutaxassisi.



O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi Samarqand viloyati kengashining VIII hisobot-saylov konferensiyasi bo'lib o'tdi. Dastlab O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi Suxrob Rafiqov 2020-2025-yillarda kengash tomonidan amalga oshirilgan ishlar yuzasidan hisobot berdi.

Kasaba uyushmasiga amaldagi rais qayta saylandi



Ta'kidlanishicha, hisobot davrida kasaba uyushmasiga 1705 ta murojaat kelib tushgan bo'lib, ularning 846 tasi qanoatlantirilgan, 830 tasi yuzasidan tushuntirish berilgan, 27 tasi tegishliligi ko'ra boshqa organlarga yuborilgan. Shuningdek, murojaatlarning 924 tasi alohida o'rganilib, 322 nafar xodimning huquqlari tiklangan hamda xodimlarga 318 million so'mdan ziyod mablag' undirib berilgan.

Xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyatda faol ishtirokini ta'minlash maqsadida "Ayollar daftari" tizimi orqali 2021-2025-yillarda 512 ming 326 nafar xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatilgan.

Yig'ilishda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi va o'rinbosarligiga nomzodlar ko'rsatilib, belgilangan tartib asosida saylov o'tkazildi.

Yashirin ovoz berish yo'li bilan o'tkazilgan saylovda amaldagi rais Suxrob Rafiqov yana 5 yil muddatga O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi viloyat kengashi raisi vazifasiga, shuningdek, Akbar Abdusaidov hamda Sharkiya Bakayeva kengash raisi o'rinbosarligiga saylandi.

Hisobot-saylov konferensiyasida O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasining IX qurultoyiga delegatlar ham saylandi.

Tadbirda O'zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi o'rinbosari Baxtiyor Mahmadiyev, viloyat hokimining o'rinbosari Husan To'xtayev, soha xodimlari va delegatlar ishtirok etdi.

F.RO'ZIBOYEV.

Tashxis va tashxisnoma sўzlari bugungi kunda kўpchilik gazetxonlarimiz uchun odatiy ibora bўlib qoldi. Ushbu atamalar diagnost va diagnostika sўzlarining lўgaviy tarjimasi bўlib, oraliq bilim sўzidan kelib chiqqan falсаfий тушунча ҳисобланади. Lўнда қилиб айтсак, ташхис (диагноз) бемор ва унда мавжуд бўлган хасталиklarнинг тиббий атамаси бўлиб ҳисобланади. Азиз газетхонларимизнинг ҳўкмига ҳавола этилаётган ташхис ва ташхисномага бағишланган ушбу мушоҳадамизга “Тиб қонунлари” қомусий асари соҳиби Абу Али ибн Синонинг “Тўғри ташхислаш – бу тўғри даволашнинг асосий мезони” деган қанотли иборали фикрлари сўзбоши бўлди.

Даволаш муассасаларига мурожаат қиладиган ҳар бир беморга биринчи навбатда касалликнинг ташхиси шакллантирилади. Ушбу шакллантирилган ташхис биринчи навбатда касаллик жараёни қайси аъзони зарарлагани ҳамда ушбу аъзода қандай йўсиндаги патологик жараён содир бўлганлигига мувофиқ равишда тиббий ҳужжатларда акс этдирилади.

Дунёнинг барча мамлакатларида ташхислаш жараёни Жаҳон соғлиқни сақлаш ташкилотининг 1990 йили ишлаб чиққан ва тавсиявий характерга эга бўлган халқаро касалликлар таснифига (МКБ-10) биноан амалга оширилади. Ушбу касалликлар таснифи ер куррасининг барча мамлакатлари учун умумий тарзда ишлаб чиқилган бўлиб, барча хасталиklar 21 та бобга жамланган ва уларнинг атамалари ташхислаш учун асос бўладиган нозологик бирикмаларда келтирилган. Бундан ташқари ушбу касалликлар таснифида ҳар бир хасталик тиббиёт ходимларининг иш

жараёнини енгиллатиш учун махсус сонлар ва ҳарфлар билан қодланган.

Ҳар бир шифокор ўз амалиётида мурожаат этиб келган беморнинг мавжуд бўлган хасталигини аниқлагандан сўнг тиббий ҳужжатларда беморнинг хасталигини, ана шу таснифда баён этилган нозологик бириклар билан ёзиши лозим бўлади.

Ушбу тасниф бўйича тўғри аниқланиб, тўғри ёзилган ташхис оқибатда стандарт даволаш усулларининг тўғри танланишига ҳамда беморнинг тўғри танланган этиопатогенетик муолажалар олишига асос бўлади. Мазкур халқаро таснифнинг яна бир муҳим жиҳати шундаки, беморга тўғри қўйилган ва қодланган ташхис асосида мамлакатда соғлиқни сақлашнинг бошқарув тизимларида ҳамда Давлат статистика қўмитасида соғлиқни сақлаш тизимини молиялаштиришга йўналтирилган, тиббиётнинг қайси соҳаларига эътиборни кучайтиришга қаратилган йўриқномалар ва буйруқлар ишлаб чиқариш учун асос бўлади.

Мисол учун, ўтган 2024 йилда Ўзбекистон республикасида ўлимга олиб келган касалликларнинг 51 фоизидан юқориси юрак ва қон томир тизими хасталликлари туфайли рўй берди. Бу статистик маълумот ташхисланган ҳолатлар бўйича, яъни, жойлардаги шифокорларнинг ақл-заковати эвазига, беморларнинг ҳаётлигида уларнинг касалликларига асосланиб шакллантирилган ташхислар ҳисобига Ўзбекистон Давлат статистика қўмитаси томонидан амалга оширилган.

Шунингдек, ўтган йили Ўзбекистон республикасида мамлакатимиз аҳолисининг ўртача умр кечириш муддати 75,1 ёшга қўтарилганлиги статистик маълумотларда тасдиқланди. Аввалги йилларда бу кўрсаткич 74 ёш атрофида эди. Мамлакатимиз аҳолисининг ўртача умри ортганлигининг асосий сабаблардан бири, юртимизда тиббиётга бўлган эътибор, ушбу тизимни ривожлантиришга йўналтирилган кўплаб инкилобий ишлар қилинаётганлиги, қолаверса, мамлакатимизда ташхислаш усулларининг сифати ортганлиги билан,

айниқса, хасталиklarни эртачи ташхислашга қаратилган чора ва тadbirlarнинг ҳаётга тadbir этилаётганлиги билан узвий боғлиқдир.

Бугунги кунда мамлакатимизда касалликларни ўз вақтида тўғри ва тўлиқ аниқлаш учун барча шароит мавжуд. Лекин, танангизда Сизни безовта қилаётган бирор хил ғайриодатий белги, яъни, тиббиётчилар тилида айтилганда симптом пайдо бўлиши билан шифокорга мурожаат этишингиз лозим бўлади. Эсдан чиқарманг, хасталикни қанчалик эрта аниқлаб, унинг муолажасига эртачи киришилса, касалликнинг тузалиши осон кечади ва асоратларсиз ўтади. Касаллик қанчалик кеч аниқланса, унинг муолажаси шунчалик қийин бўлади, айниса, асоратлар рўй берса бундай касалликни даволаш анча мушкул бўлади. Бундай ҳолат ўзингизга ҳам оилангиз аъзоларига ҳам кўп ташвиш келтириши мумкин, оилангизнинг молиявий ҳолатига салбий таъсир кўрсатиши турган гап.

Шу ўринда, бутун дунёни ташвишга солиб турган, бугунги кунда дунё миқёсида инсон ўлими сабаблари сифатида, юрак-қон томир тизими касалликларидан сўнгги иккинчи поғонага чиқиб олган хавфли ўсмаларни эрта ташхислашга эътиборингизни жалб қилмиз. Хавфли ўсмалар, оддий халқ тилида кўп жойларда бир хил аталиб келинаётган саратон касаллиги (рак) номи билан машҳур. Саратон касаллигини аниқлашнинг бугунги кунда жуда ҳам кўп объектив ташхисий усуллари амалиётга жорий этилган. Хавфли ўсманни бугун ноинвазив, яъни, клиник белгилари мавжуд бўлмаган даврда аниқлашнинг имкони мавжуд. Саратонни ва бошқа кўплаб хавфли ўсмаларни эрта аниқлашнинг ташхисий йўллари тиббиёт амалиётига жорий этилган. Шунинг



учун ўзингизда ёки яқинларингизда сабаби номалум бўлган ғайриодатий сезгилар ва симптомлар безовта қилаяптими, онколог шифокорга мурожаат қилишингиз шарт эмас. Манзинингиз жойлашган жойдаги оилавий шифокорга мурожаат қилинг ва цитологик текширишдан ўтинг. Бугун бу усул барча минтақаларда жорий этилган ва ундан кўпчилик хабардор. Сиз фақат табибга эмас, шифокорга мурожаат қилинг ва вақтни бой берманг. Танангизда пайдо бўлган ўша бебош ҳужайрани аниқлаш ва уни жийовлаб орқага қайтариш, унинг ўса бошлаганлигининг дастлабки бошлангич даврида ва эрта ташхислашга боғлиқ. Демак, ўз соғлигингизга бефарқ бўлмасдан оддий йўл билан, ўсма касаллиги бошланганлигининг ибтидосида ташхислаш орқали сиз узундан узоқ умр кечиришингиз мумкин.

Айтиш керакки, барча хасталиklar, шу жумладан, хавфли ўсма касалликлар ҳам, қанчалик барвақт, яъни хасталикнинг бошлангич даврида тўлиқ ва тўғри аниқланса, шунчалик уларни даволаш самарали бўлишини таъкидлаб ўтамиз.

Фарида ҲАМИДОВА,
тиббиёт фанлари доктори,
Тўра ЭШҚОБИЛОВ,
Бахтиёр АБДУЛЛАЕВ,
тиббиёт фанлари номзодлари.

Темир yo‘lga tosh qo‘ygan bolalar

Olib borilayotgan profilaktik tadbirlarga qaramasdan, ayrim voyaga yetmagan shaxslar tomonidan temir yo‘llarning belgilanmagan joylaridan kesib o‘tish, tezyurar poyezdlar harakatlanadigan temir yo‘l izlariga turli jismlari qo‘yish holatlari kuza-tilmoqda.

Masalan, joriy yilning 6-may kuni Past Darg‘om tumani Yangiobod mahallasida yashovchi 8 nafar voyaga yetmagan shaxs “Juma-Kattaqo‘rg‘on” temir yo‘l bekatlari oralig‘ining 7-piketida temir yo‘lining sim to‘siqlaridan sakrab o‘tishgani aniqlandi.

16-iyun kuni esa Past Darg‘om tumani Zorman mahallasida istiqomat qiluvchi 4 nafar voyaga yetmagan shaxs “Toshkent-Buxoro” yo‘nalishi bo‘yicha harakatlanib kelayotgan “Afrosiyob” tezyurar yo‘lovchi poyezdi yo‘liga mayda toshlar terгани ma‘lum bo‘ldi.

Har ikki holat bo‘yicha voyaga yetmagan shaxslarning ota-onalariga nisbatan Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 47-moddasi 1-qismida nazarda tutilgan ma‘muriy bayonnoma rasmiylashtirilib, voyaga yetmaganlar nazoratga olindi.



Shu o‘rinda fuqarolardan temir yo‘llarning faqat belgilangan joylaridan kesib o‘tishlarini, yuqori tezlikda harakatlanayotgan poyezdlarga har xil jismlarni otmasslikni, temir yo‘l atrofida chorva mollarini boqmasliklarini so‘raymiz.

Bobur ASLONOV,
“Maroqand” bekatida xavfsizlikni ta‘minlash bo‘linmasi huquqbuzarliklar profilaktikasi guruhi inspektori, kapitan.

Kontrakt asosida tahsil olayotgan talaba davlat grantida o‘qishi mumkin

Bugungi kunda ta‘lim jarayonida o‘zini ijobiy tomondan namoyon eta olgan har bir talaba uchun moliyaviy rag‘batlantirish tizimi joriy etildi. Ushbu mexanizm orqali akademik ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan, ixtisosligi doirasida yutuqlarga erishgan, jamoat ishlarida faol ishtirok etayotgan hamda ehtiyojmand yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalardan chiqqan talabalarni grant asosida o‘qitish yoki o‘qish xarajatlarini davlat tomonidan qoplash imkoniyati yaratilmoqda.

Joriy etilgan yangi tizim adolat prinsipining amaliy ko‘rinishi bo‘lib, har bir talaba bilimga bo‘lgan intilishi va fidokorona mehnati orqali davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlandi. Kontrakt-shartnoma asosida tahsil olayotgan, biroq yuqori o‘quv ko‘rsatkichlariga erishayotgan yoshlar moli-

yaviy to‘siqlar sababli o‘qishni tark etish xavfidan holi bo‘ladi. Ayniqsa, chekka hududlardagi qizlar, imkoniyati cheklangan shaxslar hamda ijtimoiy jihatdan himoyaga muhtoj qatlam vakillari uchun ushbu imkoniyat katta ahamiyat kasb etadi.

Buning uchun davlat oliy ta‘lim muassasalarining bakalavriat ta‘lim yo‘nalishlariga qabul qilingan va muayyan o‘quv yili davomida GPA (ta‘lim oluvchining dastur bo‘yicha o‘zlashtirgan ballari o‘rtacha qiymati) ko‘rsatkichi 4 va undan yuqori bo‘lgan hamda ijtimoiy toifaga kiruvchi talabalar o‘z imkoniyatlarini sinab ko‘rish va navbatdagi o‘quv yilida qo‘shimcha davlat granti sohibiga aylanishi mumkin.

Bunda talabgorlar o‘z arizalari bilan har yili 20-iyulga qadar oliy ta‘lim tashkilotining rasmiy veb-sayti

orqali ro‘yxatdan o‘tadi. Ro‘yxatdan o‘tgan talabgorlarning arizalari har yili 25-iyulga qadar akademik o‘zlashtirish ko‘rsatkichini aniqlash bo‘yicha komissiya tomonidan GPA ko‘rsatkichi ko‘rib chiqilib baholanadi. Qo‘shimcha davlat granti taqdim etilgan talabalar har yili 5-sentabrga qadar oliy ta‘lim tashkiloti tomonidan xabardor qilinadi. Bunday qo‘shimcha davlat granti beriladigan toifalar ro‘yxati ijtimoiy himoya milliy agentligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Mazkur qarorning ma‘no va mazmunidan kelib chiqqan holda, ushbu tizim yoshlar o‘rtasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantiradi.

Zilola SAYITQULOVA,
Samarqand davlat chet tillar instituti o‘qituvchisi.

Yoshlarning bilim olishi va jamiyatda munosib o‘rin egallashi uchun g‘amxo‘rlik qilish mamlakatimiz siyosatining ustuvor vazifasiga aylandi. Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 10-martda qabul qilingan “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalarga grantlarni taqdim etish va qayta taqsimlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaroriga ko‘ra endilikda shartnoma asosida ta‘lim olayotgan talabalar ham o‘qishdagi muvaffaqiyatlari, ijtimoiy faolligi yoki moddiy yordamga ehtiyoji asosida davlat granti orqali moliyaviy qo‘llab-quvvatlanishi mumkin.

REKLAMA, E‘LONLAR, BILDIRISHLAR
MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA‘VOLAR BO‘LSA...

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasida marhum Umedova Xosiyatga (2024-yil 7-fevralda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Narzullayeva Lola Shukurullayevna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Nodirabegim ko‘chasi, 5/1-uy.

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasida marhum Safarov Avaz Ernazarovichga (2025-yil 9-yanvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mirzayeva Barno Jo‘raqulovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Zebuniso ko‘chasi, 4-“A” uy.

Narpay tumanida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasida marhum Madiyarov Murodullo Abdullovichga (2025-yil 10-aprelda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilgan. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Eshniyozov Dilshod Qurbonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Narpay tumani “Salovot” MFY.

Toyloq tumanida xizmat safaridagi Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasida marhum Kabilov Mamatkul Shamirzayevichga (2023-yil 11-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Tursunov Suhrob Berdiqulovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Toyloq tumani Beruniy ko‘chasi.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasida marhum Razakov Komildjon Abdusattorovichga (2024-yil 16-sentabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo‘rlarning Mahmudov Shavkatjon Mirzajonovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so‘raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Gagarin ko‘chasi, 121-uy, 21-xona.

BEKOR QILINADI

Samarqand shahridagi “BARNO BUSINESS GROUP B-B-G” mas‘uliyati cheklangan jamiyatining (STIR: 310252741) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Narpay tumanidagi «ULMAS» xususiy korxonasining (STIR: 202416179) dumaloq muhri va burchak tamg‘asi yo‘qolganligi sababli bekor qilinadi.

Keyingi yillarda aholining, ayniqsa, yoshlarning ilm olishga ishtiyoqi sezilarli darajada ortib boryapti. Buni o'qituvchi va o'quvchilarning, abituriyent hamda talabalarning fan va til bilish darajasi bo'yicha milliy, shuningdek, xalqaro sertifikatlariga ega bo'layotganida ko'rish mumkin. Qolaversa, yosh sportchilar ham yuqori natijalarga erishayotganiga guvoh bo'lyapmiz. Bu yaxshi albatta, ammo sport va ta'lim yuksalganda, ma'naviyat ulardan ortda qolmasligi kerak.

Masalan, o'qituvchilar shogirdlariga til o'rgatishda zamonaviy, interfaol usullardan foydalanyapti. Farzandlarining chuqurroq ta'lim olishi uchun ularni qo'lidan kelgan-cha qo'llab-quvvatlayotgan ota-onalar safi ham yildan-yilga kengayib boryapti. Yosh avlod tarbiyasi bilan shug'ullanish, ularning ma'naviyatini shakllantirish uchun ham o'zgacha yondashuv zarur.

Buning uchun joylarda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi hamda tuman, shahar bo'linmalari tomonidan bir qator tadbirlar amalga oshirilmoqda. Joriy yilning o'tgan 6 oyida bo'limimiz viloyatdagi 34 ta korxona va tashkilotlar bilan hamkorlikda ikki tomonlama "Yo'l xarita"lari ishlab chiqildi.

Viloyatdagi olis hududlarda joylashgan hamda "qizil" va "sa-

Ma'naviyat bir qadam oldinda bo'lishi kerak!

riq" toifalarga ajratilgan 396 ta mahallada ijtimoiy ma'naviy muhitni yaxshilash hamda aholi kayfiyatini ko'tarish maqsadida "Jaholatga qarshi ma'rifat" shiori ostida tadbirlar tashkil etildi. "Ma'rifat ulashib", "Kitobxonlik oiladan boshlanadi", "Yoshlik navosi", "Kino-karvon" mavzularida ma'naviy-ma'rifiy kechalarda 30 ming 500 nafarga yaqin aholi ishtirok etdi. Ularning 16 ming 975 nafari yoshlardir.

Aholini boqimandalik kayfiyatidan chiqarish va kambag'allikka qarshi kurashish maqsadida viloyatda ro'yxatga kiritilgan 101 ta mahallaga "Ma'naviy ko'makchi"lar biriktirilib, 17 ming 100 nafar aholi bilan tizimli ishlar yo'lga qo'yildi.

Har bir muhim sana, jumladan, Vatan himoyachilari kuni, Navro'z umumxalq bayrami, Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni, shuningdek, Turkiston jididlik harakatining asoschisi, atoqli adib va jamoat arbobi, noshir va pedagog Mahmudxo'ja Behbudiy tavalludining 150 yilligi, buyuk mutafakkirlar Alisher Navoiy va Zahiriddin Muhammad Bobur tavallud topgan kunlar munosabati bilan ham turli mavzularda targ'ibot tadbirlari, ijodiy uchrashuvlar, so'rovnoma va "chelenj"lar o'tkazildi.

Markazning viloyat bo'limi, shahar, tuman bo'linmalari, shuningdek, korxona va tashkilotlar, ta'lim muassasalari

mas'ullari telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Samarqand milliy kontentlari" guruhida birlashdi va ular tomonidan "milliy kontent" rukni ostida mingdan ortiq videoroliklar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tuman shahar bo'linmalari viloyat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda "Ma'rifat shu'lasi" ko'rsatuvi, shuningdek, "Zarafshon" gazetasining Zarnews.uz sayti tahririyati bilan birgalikda "Qadriyat" nomli ko'rsatuv hamda "Milliy mohiyat" rukni ostida videoroliklar tasvirlari olinib, tomoshabinlar e'tiboriga havola etib kelin-yapti. "Matonatli yo'l", "Yurtim tarixi", "Sen nima uchun o'qiyapsan?" va boshqa turli loyihalar asosida videolavhalar tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirildi.

Qadimiylar qadriyatlarini asrab-avaylash, milliy liboslarni ommalashtirishga va targ'ib qilishga qaratilgan "Milliy libos menga yara-shadi" nomli eng yaxshi "Milliy kontent" va "Ijtimoiy videorolik"lar tanlovlari o'tkazildi. Viloyatning qo'shni davlatlar bilan chegaradosh va olis hududlaridagi Bulung'ur, Urgut, Samarqand va Nurobod tumanlari hududida joylashgan 21 ta mahallada millatlararo totuvlik va hamjihatlikni ulug'lashga qaratilgan tadbirlar tashkil etildi. Ularda "Ma'rifat" targ'ibotchilar



jamiyati a'zolari, tyutorlar, talaba-yoshlar va otinoyilar faol ishtirok etishdi.

Mamlakatimizning turli hududlarida bo'lgani kabi viloyatimizda "Ma'rifat" targ'ibotchilar jamiyati va hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Ma'rifat karvoni" loyihasi doirasidagi tadbirlar ham ko'tarinki ruhda o'tkazildi.

Bu kabi tadbirlarni yilning ikkinchi yarmida ham uyushqoqlik bilan davom ettirishni maqsad qilgan holda ma'naviyatni yuksaltirishda ta'sirchanligi kuchli bo'ladigan yangi loyihalarni amalga oshirishni rejalashtiryapmiz. Yaqinda viloyat faollari, ma'rifat targ'ibotchilari bilan uchrashuv tashkil etilib, shu haqida kelishib olindi.

"Halollik vaksinasi", "Ma'naviyat bir qadam oldinda", "So'z boshi - salom" va boshqa bir qator loyihalar amalga oshirilishi ko'zda



Xolbek KO'BAYEV,
Respublika Ma'naviyat
va ma'rifat markazi
viloyat bo'limi
rahbari.

Mulohaza



Kitob ko'p, kitobxon kam

"Hozir kim ham kitob o'qirdi?" Bugungi kunda kitob mutolaasini unutgan odamlar jamiyat nomidan ana shu gapni gapirishga o'rganib qolgan. Rostdan ham kitob o'qishdan yuz o'girdikmi yoki o'qishga to'siqslar bormi? Balki muammo o'qimaslikda emas, mutolaa madaniyati va targ'ibotning pasayganidadir?

ODAMLAR KITOB MUTOLAASI HAQIDA QANDAY FIKRDA?

Bu haqda maqola yozishdan avval ijtimoiy tarmoqda va aholi o'rtasida "Nega kitob o'qishga odatlanmay qo'ydik?" savoli bilan so'rovnoma o'tkazildi.

So'rovnoma natijasiga ko'ra, ishtirokchilarning eng katta ulushi — 29 foizi "Muntazam kitob o'qib boraman" javobini tanlagan. Bu yaxshi, ammo 26 foiz ishtirokchi kitob o'qishga vaqti yo'qligi, 25 foiz qatnashchi kitobdan ko'ra telefon qulayligi, 2 foizi kitob o'qish zerikarli ekanini bildirdi. 13 foiz respondentlar esa kitob o'qishga sabri yetmasligini ta'kidladi. Shuningdek, ayrim fuqarolar erinchoq bo'lib ketgani, kitob o'qimaslikka turli bahonalar topilishi, qiziqarli kitoblarni kamligi, audio va elektron kitoblarni qulayligini qayd etdi.

Bundan tashqari, kuzatuvchilarning asosiy qismi ilgari metro va avtobuslarda ham kitob o'qilishi, hozir esa nafaqat uyda, balki ovqatlaniganda, yo'lda yurganda, chorrahada, ishxonada, xullas, aksariyat hollarda eng ko'p vaqtimiz telefonga tikilish bilan o'tayotgani, ayniqsa, yoshlar telefonda bo'shamasligini kam kitob o'qilishining asosiy sababi sifatida aytishdi.

So'rovnoma natijasidan ko'rish mumkinki, jamiyatda kitob o'qishga bo'lgan qiziqish saqlanib qolgan. Biroq ko'pchilik vaqtini telefon, internet yoki boshqa texnologiya va yumushlarga sarflayotgani yomon. Bu kitob o'qish madaniyatini shakllantirish zarurligi, qulay muhit yaratish va ommaviy targ'ibot ishlarini kuchaytirish, shuningdek, mutolaa faqat shaxsiy istak emas, balki muhit va hayot tarziga bog'liq ekanini anglatadi.

KITOBXONLIKNI RIVOJLANTIRISHGA BERILAYOTGAN E'TIBOR NATIJA BERYAPTI(MI)?

Ma'lumotlarga ko'ra, taraqqiy etgan mamlakatlar emas, so'nggi yillarda tez rivojlanayotgan davlatlar aholisi ko'proq kitob o'qir ekan. Xususan, hindistonliklar faqat qo'shiq kuylaydi yoki kino ko'radi, desak adashamiz. Ular dunyoda eng ko'p kitob o'qiydigan xalq. Hindlar haftasiga 10,7 soat vaqtini kitob o'qishga sarflaydi. Umuman, eng ko'p kitob o'qiydigan davlatlar o'ntaligiga e'tibor beradigan bo'lsak, keyingi o'rinlarda Tailand - haftasiga 9,4 soat, Xitoy - haftasiga 8 soat, Filippin - haftasiga 7,6 soat, Misr - haftasiga 7,5 soat, Chexiya - haftasiga 7,4 soat, Rossiya - haftasiga 7,1 soat, Shvetsiya - haftasiga 6,9 soat, Fransiya - hafta-

siga 6,9 soat, Vengriya aholisi esa haftasiga 6,8 soat kitob o'qir ekan.

Xo'sh, yurtimizda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar qanday samara beryapti?

Axborot oqimining tezlashishi va raqamlashuvning kengayishi natijasida kitobxonlik madani-

yatini yuksaltirish nafaqat ijtimoiy, balki ma'naviy taraqqiyot uchun ham muhim vazifaga aylanmoqda. Yurtimizda ham ushbu yo'nalishda bir qancha qarorlar, farmonlar va das-turlar qabul qilinib, samarali ishlar amalga oshirilyapti. Xususan, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan yoshlar orasida kitobxonlikni rivojlantirish va targ'ib qilish maqsadida tashkil etilgan "Yosh kitobxon" tanlovi orqali kitob o'qiyotgan yoshlar sezilarli oshdi.

Yoshlar ishlari agentligi ma'lumotlariga ko'ra, 2017-yildan buyon an'anaviy tarzda o'tkazilayotgan "Yosh kitobxon" tanlovida qariyb 5 millionga yaqin yoshlar qamrab olingan. Kitob do'konlari va kutubxonalarda eng ko'p izlanayotgan kitoblarni ham "Yosh kitobxon" tanlovida e'lon qilingan 140 nomdagi adabiyotlar ekan. Bu o'z o'rnida kitob bozorida talab va taklifning ortishiga ham xizmat qilmoqda.

2017-2024-yillarda 280 nafar yosh "Yosh kitobxon" tanlovining respublika bosqichida ishtirok etgan bo'lsa, shundan 20 nafari g'oliblikni qo'lga kiritib, Prezident sovg'asi sovrindori bo'lgan. E'tiborlisi, tanlovda o'qib bo'lgan 17 nafar qizning 7 nafari kufonchali O'zbekiston Prezidenti tomonidan davlat mukofotlari bilan taqdirlangan. Demak, kitob yoshlarning keyingi taqdiriga ham ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, kitob o'qib, ota-onasiga avtomobil sovg'a qilayotgan yoshlar safi kengaymoqda. Misol uchun, o'tgan yil ushbu tanlovining respublika bosqichida 10-14 yosh toifasida qirqdan ortiq badiiy-ommabop kitoblarni o'qigan Jomboy tumanidagi 12-umumta'lim maktabi o'quvchisi Nargiza Muhammadiyeva birinchi o'rinni egalladi. Unga Prezident sovg'asi — "Cobalt" avtomashinasi sovg'a qilindi.

Albatta, kitobxonlikni targ'ib qilish ishlari shu bilan to'xtab qolgani yo'q. Davlat dasturlari, mahalliy va xalqaro loyihalar orqali kitobga bo'lgan qiziqishni oshirish, yosh avlodni ma'naviy jihatdan boyitish

YOSHLAR KITOB O'QIYAPTI, SIZ HAM O'QING



xalqimiz ma'naviyati uchun kuyinib gapiradiganlar bor. Ammo men bu gapga qo'shilmayman. Albatta, yoshlar doim kitob o'qiyapti, deyishdan yiroqman, lekin ular kitob o'qimay qo'ygani yo'q, o'qiyapti. Elektron kitoblar, audiokitoblar va onlayn platformalar yoshlar uchun kitob o'qishni osonlashtiryapti. Yoshlarni ko'ryapmiz, xalqaro fan olimpiadalarida o'lib va sovrindor bo'lyapti, xorijdagi nufuzli universitetlarda tahsil olyapti, ixtirolar qilyapti, jahon arenalarida yurtimiz bayrog'ini baland ko'taryapti, davlat mukofotlariga sazovor bo'lyapti. Agar yoshlar kitob o'qimayotgan bo'lsa, bunday natijalarga qanday erishyapti? Balki kimgidagi farzandni kitob o'qimayotgandir yoki tarbiyasi "buzilib" to'g'ri yo'ldan adashgandir, lekin hammaning ham emas. Buning sababi bitta - oiladagi muhit va ota-onaning farzand tarbiyasidagi e'tiborsizligi.

Deylik, bir oilada 4 farzand tug'ilib, voyaga yetdi. Ularning hammasini ham kitobga, ilmga qiziqitirish mushkul. Bittasi sportchi bo'lishni xohlasa, boshqasi usta, shifokorlikni tanlaydi. Albatta, bu jarayonda bola avvalo, ota-onasidan keyin yon-atrofidaigilardan o'rnak olib, o'rganganlarini amaliyotda qo'llaydi. O'shanda biz, ota-onalar har bir ishning samarali va natijador bo'lishi uchun farzandlarimizga o'rnak bo'lishimiz, ularda ijobiy taassurot qoldirib, ma'rifatga undashimiz kerak bo'ladi.

Masalaning ikkinchi tomoni ham bor. Ba'zilar

«Yoshlar kitob o'qimay qo'ydi!», deb ko'pincha badiiy adabiyotni nazarda tutadi. Badiiy adabiyot ham axborot manbai. Ayni paytda insonga badiiy-estetik zavq bag'ishlovchi, ruhiyatiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi noyob manba. Internet tarmoqlarida media olamning axborot ta'minoti g'oyatda kuchayib ketgan, butun insoniyat undan foydalanishni afzal deb bilayotgan bir paytda yoshlarni kitob o'qishga qiziqitirish oson ish emas. Faqat targ'ibot-tashviqot bilan bu muddaoga erishib ham bo'lmaydi. Badiiy kitob o'qish ko'ngil ishi, yosh qalbn tarbiyalash esa avvalo, ota-onaning, keyin esa ustozlar va jamiyatning zimmasida bo'ladi. Shunday ekan, o'zgarishni har birimiz o'zimizdan boshlaylik.

"TIRIK KITOB" NEGA TANQIDGA UCHRADI? Yoxud ma'naviyatli insonlarga ergashish kerak

Axborot texnologiyalari rivojlanib, elektron qurilmalar hayotimizning asosiy ajralmas qismiga aylanib qoldi va kitob mutolaasiga juda kam vaqt ajratadigan bo'ldik. Ammo shunday insonlar borki, ular kitobning qadriini eslatib, jamiyatni ma'rifatga chorlamog'la. Ulardan biri ijtimoiy tarmoqlarda "Tirik kitob" nomi bilan mashhur bo'lgan kitob sotuvchisi Xayrulla Asadov. U kitobga da'vat etuvchi chiqishlari, ijtimoiy tarmoqlardagi faolligi va ma'naviyat haqidagi nutqlari orqali minglab insonlarni, ayniqsa, yoshlarni ko'proq kitob o'qishga undamoqda.

Biroq u ham har bir ommaviy shaxs singari tanqidlarga duch keldi. Albatta, tanqidlar tabiiy hol, ayniqsa, jamoatchilik diqqat markazida bo'lgan inson uchun. Xayrulla Asadov kitobga bo'lgan muhabbatni keng ommaga yetkazishda zamonaviy, xalqona va ta'sirli usullarni qo'llamoqda. U olim emas, ma'rifat yo'lida fidoiylilik qiluvchi shaxs. Ko'pchilik uning qarashlarida ilmiy yondashuv va isbotlar yo'qligini ta'kidlamog'la. Bu bir tomondan to'g'ri. Lekin u o'z hayot tajribasi va o'qigan kitoblari orqali xulosa chiqaryapti, misollar keltiryapti. Bu - amaliyotga asoslangan, xalqqa yaqin uslub.

Ijtimoiy tarmoqlarda kitob sotuvchisi mashhur bo'lish bilan birga, kitobni emas, o'zini va faoliyatini targ'ib qilayotgani haqida ham tanqidiy fikrlar bildirildi. Bugungi axborot texnologiyalari asrida raqamli to'lqinda ajralib turish uchun har qanday shaxsning auditoriyaga mos vizual va muhokamabop formatda chiqish talab etiladi. Chunki bu zamon talabi. Shuningdek, Xayrulla Asadovning shaxsi kitobga bo'lgan sadoqat bilan tanilgan. Agar shaxs orqali kitobga muhabbat uyg'onsa, bu ma'rifat ulashishda eng samarali usul. "Tirik kitob" o'zini emas, shaxsiy namunasi orqali kitobni hayot tarzi sifatida hamda kitoblarni shunchaki o'qish emas, balki o'qilgan g'oyalarni hayotda tatbiq qilishni targ'ib qilmoqda.

Albatta, tanqidlar rivojlanish va xolislik uchun kerak. Biroq kitob o'qish, uni targ'ib qilish, jamiyatni ma'rifatga yetaklovchi, ilmiy insonlarni qo'llab-quvvatlash, ularga ergashish va to'g'ri xulosa chiqarish kerak. Zero, kitob inson ongini uyg'otadi, ma'naviy dunyosiga nur olib kiradi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.

MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2012-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 13 824 nusxada chop etildi. Buyurtma 330. Hajmi 2 bosma taboq, bichimi A-2

Gazeta haftaning seshanba, payshanba va shanba kunlari chiqadi.

QABULXONA: (66) 233-91-51, REKLAMA VA E'LOMLAR: (66) 233-91-56

BO'LIMLAR: (66) 233-91-57, 233-91-58, 233-91-59, 233-91-61

MANZILIMIZ: 140100, Samarqand shahri, Ulug' Tursunov ko'chasi, 80-uy, Matbuot uyi.

Gazeta «Zarafshon» tahririyatining kompyuter bo'limida sahifalandi.

«Noshir lux» MCHJ

bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Samarqand shahri, Spitamen ko'chasi, 270-uy.

Bosishga topshirish vaqti:

soat 18:30 da.

Bosishga topshirildi:

soat 19:00

Navbatchi muharrir:

A.SHERXOLOV.

Navbatchi:

O'.XUDOYBERDIYEV.

Sahifalovchi:

B.ABDULLAYEV.



Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling

ISSN-201667X



9 1772010667009

Sotuvda narxi kelishilgan holda